

**TAYYORLOV GURUHI TARBIYACHISI VA BOSHLANG`ICH SINIF
O`QITUVCHISINING O`ZARO HAMKORLIGIDAGI MUHIM JIHALTLAR.**

Sultonova Nilufar

Jizzax davlat pedagogika universiteti

*“Maktabgacha va boshlang`ich yo`nalishlarida
masofaviy ta`lim” kafedrasida stajyor-o`qituvchisi*

Anotatsiya: *Mazkur maqolada tayyorlov guruhi tarbiyachisi va boshlang`ich sinf o`qituvchisining hamkorligini samarali tashkil etilishi bilan maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta`limiga oson moslashishiga erishish to`g`risida fikrlar yuritiladi.*

Kalit so`zlar: *Maktabga tayyorlov, maktabgacha ta`lim, boshlang`ich ta`lim, tayyorgarlik monitoringi, ta`lim – tarbiya.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается вопрос о том, как добиться легкой адаптации дошкольников к школьному обучению при эффективной организации сотрудничества педагога подготовительной группы и учителя начальных классов.*

Ключевые слова: *подготовка к школе, дошкольное образование, начальное образование, мониторинг обучения, обучение - воспитание.*

Annotation: *This article discusses how to achieve easy adaptation of preschool children to school education with the effective organization of cooperation between the teacher of the preparatory group and the primary school teacher.*

Key words: *preparation for school, pre-school education, primary education, training monitoring, education - upbringing.*

Maktabgacha ta`lim va maktab hamkorligining har tomonlamaligi 6-7 yoshli bolalarning maktab ta`limiga tayyorlash vazifasining muoffaqiyotli bo`lishining asosiy sharti hisoblanadi. Maktabgacha ta`lim tashkiloti va maktabning o`zaro hamkorligi maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta`limi talablariga javob beradigan darajada rivojlantirish hamda tartib – intizomli, odobli etib tarbiyalagan holda maktabga o`tkazishni, qolaversa , o`qituvchining 6-7 yoshli bolalarning egallagan bilim, ko`nikma va malakalariga tayanib, ulardan o`quv tarbiyaviy jarayonda foydalanishni taqazo etadi. Maktabgacha ta`lim tashkiloti va maktab o`rtasidagi uzviy hamkorlik maktabga tayyorlov guruhi bolalari va maktabning boshlang`ich sinf o`quvchilariga ta`lim berish shart – sharoitlarining yaqinlashishiga yordam beradi.

Bola ta'lim-tarbiyasi hamisha eng muhim mavzulardan biri bo'lib kelgan. Buni hozirgi zamon tarbiyachisi yaxshi anglagan holda o'z kasbi bo'yicha puxta bilimga ega bo'lmog'i va o'z ustida muntazam shug'ullanib yangi zamon talablariga mos ravishda mashg'ulotlar tashkil etmog'i lozimdir.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim Vazirining 2021-yilning 30-dekabrda 255-son buyrug'i "Maktabgacha ta'lim xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari"da ham tarbiyachi vazifalari keltirib o'tilgan. Jumladan;

-bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlashda ta'lim-tarbiyaning zamonaviy shakl va usullarini qo'llay olish, intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy xorijiy, ijtimoiy kommunikativ hamda muomala ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan turli xildagi tadbirlarni tashkil etish;

-ta'lim-tarbiya jarayonida bolalar umumiy asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish;

-bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish kabi bir qator muhim lavozim vazifalari belgilab berilgan [1]. Shunday ekan, 6-7 yoshli tayyorlov guruhi bolalarini maktabga tayyorgarlik monitoringini oshirishda maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari hamda maktabgacha ta'lim tashkilotining tayyorlov guruhi tarbiyachilari o'rtasidagi uzviy hamkorlik ochiq darslar va ochiq mashg'ulotlar bilan samarali tashkil etilsa, bu 6-7 yoshli bolaning maktab ta'limiga tayyorgarligida ko'maklashadi. Chunki maktab o'qituvchisi tashkil etgan ochiq darsga maktabgacha ta'lim tashkiloti tayyorlov guruhi tarbiyachisi taklif etilsa, o'zing sobiq tarbiyalanuvchilarining birinchi sinfda darslarni qanday o'zlashtirayotganliklarini bilib oladi. Va hozir tarbiyalayotgan tarbiyalanuvchilariga faoliyatlarni ya'ni, mashg'ulotlar, rivojlanish markazlarida ishlash, ta'limiy o'yinlar, ijtimoiy mehnat jarayonlari va boshqalarni tashkil etishda qaysi jihatlarga e'tibor qaratish lozimligini anglashiga va kelgusida o'ziga rejalar tuzishida ko'maklashadi. Maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisining ochiq mashg'ulotlar jarayoniga taklif etilishi esa, o'zining bo'lajak o'quvchilari bilan tanishish hamda ularning bilim darajasini aniqlash, qolaversa bo'lajak o'quvchilarining layoqoti, qiziqishlari va qobiliyati qanday ekanligi haqida tasavvurlari shakllandi. Bundan tashqari, ochiq mashg'ulotga sust qatnashgan tarbiyalanuvchilar bilan kelgusida qanday shug'ullanish va uning darsga bo'lgan intilishini shakllantirish qolaversa, qobiliyatini ochib berish uchun o'qituvchi o'z oldiga

to'g'ri maqsadlar qo'ya olishiga zamin bo'ladi. Va eng asosiysi, 6-7 yoshli bolalarning maktabga tayyorgarlik monitoringini qay darajada ekanligini belgilash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa o'z o'rnida o'qituvchiga ham bo'lajak o'quvchilarini bilim doirasini kengaytirish uchun qanday metod, shakllardan foydalanish lozimligi haqida maqsadlar qo'yish kerakligini ang'tadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi va tayyorlov guruhi tarbiyachisi orasidagi hamkorlikni muoffaqiyotli olib borilishi uchun istiqbol rejasi tuzilsa, mazkur istiqbol rejada hamkorlikning bosh vazifasi, ish shakllari, mazmuni, bajarish vaqti va bajarish uchun mas'ullar ham belgilansa maqsadga muofiq bo'ladi. Ertangi yorug' kelajagimizning egalari uchun qayg'urish, har tomonlama ya'ni, intellektual, jismoniy, estetik, aqliy, sog'lom avlodni tarbiyalashga intilish har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining ustuvor maqsadi bo'lsagina ertamiz egalari bo'lgan bolajonlarimizni buyuk shaxsiyat egalari qilib ulg'aytiramolamiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'lim va tarbiyasi "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" asosida manan boy, jismonan sog'lom, aqlan yetuk va eng asosiysi, maktab ta'limiga sifatli tayyorlashdan iboratdir.

Maktab hayoti bolalarga yangi ochilmagan olamni ochib beradi. Bu paytga kelib bolaning asosiy mashg'ulotlari o'zgaradi, ya'ni maktabgacha ta'lim tashkilotida asosiy vaqtini o'yin jarayoniga bag'ishlagan bo'lsa, u endilikda ijtimoiy burch – ta'lim olishga e'tiborini qaratadi. O'z davrida K.Ushinskiy "Maktabgacha yoshdagi bolaning maktabdagi o'qishga tayyorligi uning ayrim psixik jarayonlarining o'sish darajasi bilan emas, bola shaxsining umumiy taraqqiyot darajasi bilan aniqlanadi" deya aytib o'tgan. Taraqqiyoning har bir bosqichida yosh avlod tarbiyasiga o'z davrining olimu – mutafakkirlari o'z fikrlarini bildirib o'tishgan va har birining fikrlarida turli tuman xulosa, ta'limiy g'oyalar o'z ifodasini topgan. Ajdodlarimizning muqaddas kitob "Avesto" da kelajak avlodning barkamol, sog'lom, mehnatkash, bardoshli, chidamli bo'lishi o'sha vaqtdagi ota – onalarning diqqat markazida turgan. Jismonan sog'lom va aqlan yetuk avlodgina nafaqat oilaning balkim, jamiyatning ham ertasidir. Shu boidan, ham vatanimizning kelajagi uchun sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash hamda voyaga yetkazishda jismoniy tarbiyaning ahamiyati juda katta. Oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sport yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining "O'zbekistonda bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida"gi Farmonida "Bolalarni jismoniy va ma'naviy tarbiyalashning zamonaviy shakl va uslublarini, jinsi va yoshiga qarab bolalarga sport ko'nikmalarini

singdirishning, sport sohasida iqtidorli bolalarni ixtisoslashtirilgan sport maktablari va markazlaridagi mashg'ulotlarga tanlab olishni ilmiy asoslangan tizimlarini ishlab chiqishni tashkil etish hamda ularni tadbiq qilishga ko'maklashish" lozimligi alohida ta'kidlagan. Maktabgacha yoshdagi bolaning o'sishi va rivojlanishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Shu davrda uning shaxs sifatida shakllanishi, birinchi bor olamni atrofdagi buyumlar hamda ashyolar orqali anglab, undan o'ziga ma'no izlashga intilishi, qiziqish va hissiyotlari rivojlanishini kuzatamiz. Maktabgacha ta'lim bola shaxsini yetuk, barkamol va shu bilan birga maktabga tayyorlagan holda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Shunday ekan, tayyorlov guruhi bolalarini nafaqat aqliy, axloqiy jihatdan balkim, jismoniy tomondan ham maktab ta'limiga tayyorlash bugunning muhim vazifasi hisoblanadi. 6-7 yoshli bolalarini maktab ta'limiga tayyorlar ekanmiz, unda tayyorlov guruhi bolalari bilan maktab o'quvchilarining aloqalarini mustaxkamlashni zarurat deb hisoblaymiz. Ularni aloqalarini mustaxkamlashni esa turli jarayonlarda amalga oshirsak bo'ladi. Masalan: birinchi sinf o'quvchilari hamda tayyorlov guruhi bolalarini sport zallarida birgalikda sport mashg'ulotlarini tashkil etish orqali amalga oshirsa bo'ladi. Bunda jismoniy tarbiya o'qituvchisi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, tayyorlov guruhi tarbiyachisi va jismoniy tarbiya yo'riqchisi o'quvchilar va bolalarga turli sport topshiriqlarini beradilar. Va ularni qanday bajarayotganliklarini nazorat qilib turadi. Shu bilan birgalikda tarbiyachi bolalarni "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi" rivojlanish sohasini indikatorlarini qanday egallaganligini kuzatib boradi hamda belgilaydi. Bu bilan 6-7 yoshli tayyorlov guruhi bolalarining jismoniy jihatdan maktabga tayyorgarlik monitoring darajasini belgilash mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, birinchi sinf o'quvchilari va tayyorlov guruhi bolalari o'rtasida turli sport estafetalarini hamda sport marafonlarini uyushtirish orqali ham 6-7 yoshli tayyorlov guruhi bolalarini jismoniy tomondan maktabga tayyorligini rivojlantirsak maqsadli bo'ladi. Masalan : sport estafetalari o'quvchilar hamda tayyorlov guruhi bolalaridan tarkib topgan aralash guruhlardan tuzuladi, ushbu tuzulgan guruhlarga nom beriladi hamda guruh sardorlari belgilanadi. Shartlar esa bolalarning qiziqishlari, yoshini hisobga olgan holda belgilanadi. Estafetani albatta jismoniy tarbiya o'qituvchisi va jismoniy tarbiya yo'riqchisi boshqarib turadi. Estafetaning shaffof hamda haqqoniy qolaversa, qoidalarga amal qilingan holda bo'lishligini nazorat qilish uchun hakamlar jamoasi ham tashkil etiladi. Hakamlar jamoasiga sport maktabidan o'qituvchi vakil, boshlang'ich sinflarining direktor o'rinbosari va maktabgacha ta'lim tashkilotidan uslubchi taklif etilishi maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi va tarbiyachi bolalarni

rag`batlantirib, kuzatib turadi. Bunday sport estafetalari va sport zallaridagi bolalarning birgalikdagi mashg`ulotlari birinchi sinf o`quvchilari va tayyorlov guruhi bolalarini birlashtiradi. Mazkur faoliyatlar davomida tarbiyachi bolalarni "Jismoniy rivojlanish va sog`lom turmush tarzining shakllanishi" rivojlanish sohasini indikatorlarini qanday egallaganligini bolalarga halaqit bermagan holatda kuzatib boradi hamda belgilaydi. Bu bilan 6-7 yoshli tayyorlov guruhi bolalarining jismoniy jihatdan maktabga tayyorgarlik monitoring darajasini aniqlash va belgilash mumkin bo`ladi. Bunday usullar orqali tayyorlov guruhi bolalarning jismoniy jihatdan monitoringini belgilash tarbiyachiga ancha oson hamda qulaylik tug`diradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muhim sanaladi. Chunki ushbu jarayonlarda badiiy – estetik did bilan birgalikda tasavvur, tasviriy savodxonlik ham shakllanib boradi.

Maktabgacha ta`lim tashkiloti va maktab hamkorligida tayyorlov guruhi bolalari va birinchi sinf o`quvchilari tayyorlagan qo`l mehnatlarining ko`rgazmasini tashkil etish o`zaro aloqani mustaxkamlashda samara beradi. Ko`rgazma maktabgacha ta`lim tashkilotining musiqiy zalida yoki hovlisidagi ochiq ayvochada tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Bunda birinchi sinf o`quvchilari va tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari uchun alohida – alohida joylar ajratiladi. O`qituvchi hamda tarbiyachilar boshchiligida tayyorgarlik ko`riladi. Va birinchi sinf o`quvchilari hamda tayyorlov guruhi bolalari yasagan qo`l mehnatlari namoyish etiladi. Bu jarayon ertlalabdan tashkil etilsa, maktabgacha ta`lim tashkilotiga farzandini olib kelgan ota – onalar ham ko`rgazmani tomosha qilar ekan, farzandlarining yasagan qo`l mehnatlarini ko`radi va o`zlari baxo beradi. Ko`rgazmani maktabgacha ta`lim tashkilotining boshqa guruh tarbiyalanuvchilari ham tomosha qilishadi. Qolaversa, boshqa maktabgacha ta`lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari ham taklif etilsa bo`ladi. Bunday tashkil etiladigan ko`rgazmalar orqali tayyorlov guruhi bolalari va birinchi sinf o`quvchilarining badiiy – ijodiy bilimlari baxolanadi. Bu esa albatta tayyorlov guruhi bolalarining ijodiy bilimlarini monitoringini aniqlashda yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, 6-7 yoshli tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta`limiga tayyorgarlik darajasini oshirishda maktab va maktabgacha ta`lim tashkilotlari aloqalari ham nihoyatda muhim. Aynan mana shu shakllar tayyorlov guruhi bolalarining maktabga tayyorgarlik monitoringini oshishida ko`maklashadi.

Shuni alohida ta`kidlash joizki, bolaning zerikib qolmasligi va diqqatini jamlab, berilayotgan bilimni oson, tushunarli egallay olishi uchun mashg`ulotlar oralig`ida va mustaqil faoliyatlar jarayonida turli ta`limiy,

harakatli o`yinlarni o`ynash foydali. Maktabgacha yoshdagi har bir bolaning sifatli ta`lim olishini ta`minlashga yordam beruvchi, turli interfaol usullarning ahamiyoti katta. Mazkur usullar har bir ishtirokchiga mustaqillik va uyushqoqlikni namoyish etish imkonini beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatlari jarayonida tashkil etiladigan mazkur usullarni tashkil etishda 6-7 yoshli tayyorlov guruhi bolalarining yosh xususiyatlari, aqliy rivojlanish salohiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Shu asosida tarbiyachi hamda boshlang`ich sinf o`qituvchisining o`zaro hamkorligi muhim ahamiyotga kasb etadi. Maktabga tayyorlov guruhi bolalarida monitoringni o`tkazishdan maqsadlardan yana biri bolaning maktabgacha ta`lim tashkilotida ta`lim jarayonining muvaffaqiyoti va samaradorligini aniqlaydi, boshlang`ich sinf o`qituvchisi bolaning boshlang`ich maktabda muvaffaqiyotli moslashishi va maktabgacha yosh davri davomida qaysi tomondan o`zlashtirishda qiyinchiliklarga uchraganligi haqida ma`lumotlar beradi. Bu esa boshlang`ich sinf o`qituvchi bolani qaysi jihatdan u bilan ko`proq shug`ullanishi lozimligi haqida bilib oladi. Va o`qituvchi bola bilan individual tarzda ishlashi natijasida bolaning maktab ta`limiga ko`nikishi nisbatan yengilroq ko`chadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim Vazirining 2021-yilning 30-dekabrda 255-son buyrug`i "Maktabgacha ta`lim xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari" to`g`risida. [1]

2. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Maktabgacha ta`lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to`g`risida" gi 802-sonli Qarori 2020-yil 22-dekabr.

3. "Bolalarni maktab ta`limiga tayyorlash metodikasi" o`quv qo`llanma. T-2020

D.Q. Asqarova.

4. Maktabgacha pedagogika – 2019.

F. Qodirova, Sh. Toshpo`latova, N. Kayumova, M. A`zamova.

Internet saytlari:

1. www.pedagog.uz.

2. www.Ziyonet.uz.

3. www.tdpu.uz.